

“ZAV’UL MAOLIY SHARHU BAD’UL AMALIY” KITOBI VA UNING MOTURIDIYA MAZHABIDA TUTGAN O’RNI

To‘raqulov Ibrohimjon

Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Badul amoliy” kitobining eng mo’tabar sharhlaridan biridir. Zovul maoliy kitobi birnecha nusxada birnecha bosmahonalar birnecha davlatlarda chop etilgan va birnecha tillarga tarjima qilingan. “Zav’ul-maoliy sharh Bad’ul-ma’oliy” 1884-yilda Dehlida, 1295-yilda Bombeyda, 1293-1302-1304-yillarda Istanbulda, 1319-yilda esa., Husniy Afandining turk tilidagi tarjimasi bilan, 1379-yilda Damashqda, 1349-yilda Qohirada bir necha martalab nashr qilingan. “Zovul maoliy” iboralarining yengilligi va tiniqligi, hamda bu ilmni dars olishda yangi boshlovchilarning holatiga tushunchalariga munosib keladigan va bu soha vakillarini qoniqtiradiganligi, dalilining kuchliligi bilan birga, o’quvchining qalbiga bu sharhni olib kirishi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: “Zav’ul maoliy sharhu bad’ul amaliy” kitobi, Moturidiyya, mazhab, ilm, taxlil, imom, moturid.

Moturidiyya mazhabi deb nomlandi lekin madrasasida deb tushunamiz. Chunki aqoidda “al-Ash’ariyya” va “Moturidiyya” bu ikki madrasa Ahli sunna val jamoa mazhabidadur. Moturidiyya maktabida ta’lim olib, ijod qilib va bu borada Alloh taolo bergan ulkan zafarlarni qo’lga kiritgan olimlar juda ko’pdir.

Moturidiyya maktabining asoschisi bilan tanishib chiqamiz. Yurtimiz shuhratini dunyoga taratgan tengsiz va zabardast allomalarimizdan biri, hidoyatga boshlovchilar Imomi, e’tiqod-kalom ilmining asoschisi va peshvosi Hazrati Shayx Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Moturidiy as-Samarqandiydur.

U kishi Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog’ida dunyoga kelgan. Moturid aslida manbalarda aytilishicha, arabcha «Mo turid» so‘zidan olingan. Ma’nosi, «Nima demoqchisan?»dir. Aytishlaricha, Shayx Abu Mansur al-Moturudiy kalom ilmiga ruju’ qo‘ygan paytida shogirtlari ko‘payib ketgan va ular o‘zaro bahs qilganlarida, bir-birlariga arab tilida ko‘pincha «Mo turid» deb murojaat qilganlar. Shu so‘z ko‘pchilik qulog‘iga tez-tez chalinavergach, Shayx shogirtlarini moturidiylar, qishloq nomini esa Moturid deb atay boshlaganlar.

Islom olamida “Imamul huda” (Haq yo‘lida hidoyatga boshlovchi Imom), “Imomul mutakallimin” (kalom olimlarining Imomi), “Raisul ahlus sunna” (ahli sunna va

jamoati raisi) va “al-mutakallim as-Samarqandiy” (Samarqandlik kalom ilmi Imomi) kabi sharaflil nomlar ila sarafroz etilib, mashhuru manzur bo‘lgan Imom Abu Mansur al-Moturidiy ilmda, islomda, shariatu ehyoda va sunnati soniyada nihoyatda beqiyos xizmatlari uchun ham katta shuhrat qozonganlar.

O‘tgan tarixnavislar ul zotning naslu-nasablarini ansoriylardan biri, ya’ni Hazrati Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning Madina shahriga hijratlari vaqtida, ul zoti sharifni ilk mehmon qilgan Abu Ayub Xolid ibn Zayd ibn Kulayb al-Ansoriy avlodidan ekanliklarini yozishsa-da, ota-onalari va oilalari haqida hech bir ma’lumot berishmagan.

Shunday qilib, buyuk allomaning nomlari — Muhammad, kuniyalari — Abu Mansur va taxalluslari — Moturidiy (ya’ni, Moturid mavzeida tug‘ilganliklari uchundir) bo‘lgan. Imom Moturidiy hayotida, bizgacha etib kelgan juda oz ma’lumotlarga ishonadigan bo‘lsak, uni samarqandlik zamondosh olimlardan ajratishga arzigulik bironta diqqatga sazovor voqea sodir bo‘lmagan. Xech bir ma’lumot uning biron-bir ijtimoiy lavozim egasi bo‘lgani yoki keng shuhrat topgani, ko‘proq tarafdorlarga ega bo‘lgani yoki bo‘lmasa, Buxorodagi Somoniylar saroyi bilan qandaydir aloqasi bo‘lganiga ishora qilmaydi. Boshqa ilohiyotchilarda, masalan, al-Ash’ariyda bo‘lganidek, bir necha fojivaviy shaklda kechgan holda tubdan o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan ichki ruhiy kechinmalar haqida ham biron-bir manbada ma’lumot uchramaydi. Aksincha, al-Moturudiy mashhur bo‘lgandan so‘ng, u haqda hikoya qilib bermoqchi bo‘lgan shaxs har gal uning hayotidan biron bir tilga olishga arzigulik ma’lumot topa olmagan hamda favqulodda bir narsa aytib bera olmaganidan biroz sarosimaga tushib qolar edi.

Imomning tug‘ilish sanalari va ustozlari borasida ba’zi chalkashliklar ham mavjuddir. Aksariyat tarixchilar Moturidiyning 333 (mil. 944) yilda vafot etganliklari haqida yagona fikrga egadurlar. Shunga qaramay, ba’zi Ovrupo tarixnavislari Imomni 941 yilda vafot etgan deyishsa, mashhur turk olimi Tosh Ko‘prizoda esa Moturidiyning 336 (947) yilda vafot etgan, deb fikr bildirgan. Shu bilan birga, ba’zan 935 yilda yoki 945 yilda vafot etgan, deyuvchilar ham uchraydi.

Shuni alohida e’tirof etish joizkim, hozirgi davrimizga kelib buyuk Imomning vafot etgan sanalari 333 (944) ekanligini barcha ilm ahli e’tirof etgandir. Keyingi davr manbalarida, jumladan “Islom” qomusida, Ovrupolik mashhur islomshunoslardan G.E. fon Gryunebaum asarida Moturidiy 870 yilda tug‘ilgan va 944 yilda vafot etgan, degan fikrlarini yurtimiz tarixchilari haqiqatga yaqin deb hisoblaydilar. Chunki “Islom” qomusi hamda Ovrupo olimlari o‘zlarida mavjud va bizdan tashib ketilgan juda noyob

qo‘lyozma kitoblardan foydalanganliklari ma’lumdir. Shuning uchun ham Imomning tug‘ilishlariga 870 — yilni etalon sifatida belgilandi.

Imom Moturidiy hayotlariga oid barcha ma’lum manbalarning dalolat berishicha, ul zot Imom A’zam — Abu Hanifa mazhabi zanjiridagi eng yuqori turgan allomalardan tahsil va ijozat olgan. Uning fiqhshunoslik va ilmi kalomda muqim shakllanishida Samarqandda yashayotgan o‘sha zamonning zabardast faqihlaridan Muhammad ibn Fazl Balxiyning ta’siri benihoya katta bo‘lgan. U kishi Balx shahrida tavallud topgan. Ba’zi sabablarga ko‘ra, Balxdan ketishga majbur bo‘lgan Muhammad ibn Fazl Balxiy Samarqandga kelib faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Uning eng mashhur shogirdlari sirasiga islom olamidagi Kalom ilmining asoschisi bo‘lmish Imom Abu Mansur al-Moturidiy va ilmi hikmatning zabardast allomasi Imom Abul Qosim as-Samarqandiy kiradi. Zamon allomasi Muhammad ibn Fazl Balxiy 319 (931) yilda Samarqandda vafot etadi va Poyqobq darvozasi yaqinida, Hazrati SHohizinda — Qusam ibn Abbosning yaqin yoronlaridan bo‘lmish Muhammad Sangrasonning qabri yaqinida dafn etilgan. Tarixiy manbalar bo‘yicha, ul zotning tariqiy (ya’ni tariqatdagi ustozlari) silsilasi quyidagicha: Balxiyning silsilasi Ahmad Xizro‘yga (vaf. 854) borib etadi; u esa Hotim Asamning (vaf. 852) shogirdi; u esa o‘z navbatida SHaqiqi Balxiyning; u esa Ibrohim Adhamning shogirdi edi.

Al-Kavofiy o‘zining “Kitabi a’lom ul ahyor” asarida Imom al-Moturidiyning Abu Nasr al-Iyoziydan ijozat olganligini va Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniydani fiqh ilmini o‘qiganligini, u zot esa Abu Sulaymon al-Juzjoniydani, u esa Imom Muhammad ash-SHayboniydan, u esa buyuk allomalar ustozlari va mazhab asoschisi Abu Hanifa — Imomi A’zam (rahmatullohi alayh)dan fiqh tahsili olganligini yozadi. SHunisi ibratomuzkim, Abu Nasr al-Iyoziy Imom al-Moturidiyning ustozlari bo‘lishiga qaramasdan, u bilan birgalikda Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniyning majlisiga qatnab hamsabaqlik qilgani kabi, keyinroq Imom Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiy ham Imom al-Moturidiyni ustoz bilgani holda u bilan birga Raboti Foziyon masjid-madrasasiga Balxiyning majlisiga qatnab hamsabaqlik qilgan hamda xalqai tadriseda birgalikda ijozat olishgan ham edilar.

Hozirgi davrning ko‘pchilik olimlari Imom al-Moturidiyning ona yurti Samarqanddan bir qadam ham o‘zga yurtlarga, xorijga chiqmagan va o‘z asarlarini faqat Samarqandda turibgina yozgan, deb da’vo qilishmoqda. Yo‘q, bul zot ham boshqa ulug‘ allomalarkabi islom yurtlariga safar qilganlar; Haj va buyuk ustozlar ziyoratida bo‘lganlar. CHunki, bir buyuk ilmni boshlashdan oldin Makkaga — hajga, Madinaga — Rasululloh ravzalarining ziyoratiga, SHomu Iroqdagi Imom A’zam hamda boshqa buyuk ustozlarning ziyoratlariga borib Allohdan madad va ulug‘ ustozlardan

ruhoniyaatli ijozat so‘raganliklari aniqdir. Zerokim, o‘zlarining huquqshunoslik, kalomshunoslik, tafsir va hadisshunosliklarga doir yozilgan ulug‘ asarlarida, masalan hajga doir masalalarni o‘zlari hajni ado etmasdan turib shar‘iy hukm chiqarishlarini tasavvur qilish qiyindir. Demak, Imom al-Moturidiy albatta hajga borganlar, shu bilan birga boshqa yurtlarga ham safar qilganlar. SHuning uchun ham yuqoridagi arkonlar haqida mukammal hukmlar chiqarishga haqlari bo‘lgan.

Buyuk Imom Abu Mansur al-Moturidiy mashhur shogirdlarni etishtirganliklari bilan ham mashhurki, ularning barchasi Imomlik darajasiga musharraf bo‘lishgandir:

1. 342 (953) yilda vafot etgan, ismi va ilmi ila dovrug‘ taratgan Ilmi hikmat asoschisi Imom Abul Qosim Ishaq bin Muhammad al-Hakim as-Samarqandiy;
2. 350 (961) yilda vafot etgan, ilmi fiqh va kalomning buyuk allomalaridan biri bo‘lgan Imom Abul Hasan Ali ibn Sa‘id ar-Rastug‘foniy;
3. 390 (999) yilda vafot etgan Imom Abu Muhammad Abdulkarim ibn Muso ar-Pazdaviy;
4. 374 (985) yilda vafot etgan va Imom al-Moturidiydan keyin “Imamul -ilmul huda” (ya’ni, “hidoyatga boshlovchi olimlar Imomi”) sharafli unvonini olgan boshqa alloma Imom Abu Lays Nasr bin Muhammad as-Samarqandiy;
5. Abu Ismat ibn Abu Lays al-Buxoriy.

Hazrati Imom al-Moturidiyning ushbu shogirdlaridan tashqari yana o‘nlab salohiyatli izdoshlari ham bo‘lishgan.

Iroqdagi Imom al-Ash‘ariyning kalom ilmi maktabining mashhur bo‘lishiga Imom al-Fazzoliy, Imom al-Boqiloniy, Imom ash-SHahristoniylar qanday ijobiy rol o‘ynagan bo‘lsalar, Samarqanddagi Imom al-Moturidiyning kalom ilmi maktablarini mashhuru manzur bo‘lishiga Imom Abul Qosim as-Samarqandiy (vaf. 953), Imom Abu Mu‘in an-Nasafiy (1027-1114), Abu Hafs an-Nasafiy (vaf. 1142), alloma Sa‘duddin at-Taftazoniy (1322-1389)lar ham shunday ijobiy rol o‘ynagandurlar.

Kitobat sohasida Imom al-Moturidiy aqidalarini bayoni va sharhi sifatida Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiyning “Al-E‘tiqod”, Abu Mu‘in an-Nasafiyning “Tabsirat ad-dilla” va “Bahrul kalom”, Abu Hafs Najmiddin Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiy”, alloma Sa‘duddin at-Taftazoniyning “SHarhul aqoid an-Nasafiy” asarlari oltin silsila tariqasida birin-ketin yozilib, Moturidiya raviyalarini keng tarqalishiga, rivojlanishiga o‘zlarining buyuk hissalarini qo‘shadilar. Bular qatori “Zov‘ul maoliy” kitobi ham o‘z o‘rniga ega. Kitob o‘ziga hos shaklda yozilgan. Ushbu asar tasnif qilinishida alohida ihtimom bilan tasnif qilingan. Musannif rahimahulloh Fiqhul akbarning sharhi cho‘zilib ketgani uchun ushbu sharhni lo‘nda qilib yozganlar. Lekin ma‘nolarni to‘g‘ri fahmlashga yordam beruvchi manba‘ hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Fusulul himma Ali Qori.. – Bayrut: Dorul-kutub al-islomiy, 1990. – B. 23.
2. www.ko'kaldosh.uz sayti
3. info@kukaldosh.uz